

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ABDULXAYEVA MALIKA MARATOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KVAZI-SINONIMLARNING  
FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

UDK: 811.111: 811.512.133: 81'373.421

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Abdulxayeva Malika Maratovna**

Ingliz va o'zbek tillarida kvazi-sinonimlarning funksional xususiyatlari..... 3

**Абдулхаева Малика Маратовна**

Функциональные особенности квазисинонимов в английском и узбекском  
языках ..... 25

**Abdulkhaeva Malika Maratovna**

Functional Features of Quasi-synonyms in the English and Uzbek Languages..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of Published Works ..... 53

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ABDULXAYEVA MALIKA MARATOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KVAZI-SINONIMLARNING  
FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1601 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Djumabayeva Jamila Sharipovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **Mamatov Abdimurod Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Boltakulova Gulnoza Farruxovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "15" mart soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400. Tel.: (+99871) 246-08-62; faks: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.A.Siddiqova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filol.f.d., professor

**Sh.O.Nazirova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol. f. n., dotsent

**S.E.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida sinonimlar chuqur tadqiq etilgan deb hisoblansa-da, ba'zi bir tillarda ularning ochilmagan qirralari mavjud. Sinonimlarning o'rganilishi nafaqat leksikografiya sohasining rivojlanishiga, balki til o'qitish metodikasi, ma'nodosh, variantlilik, dubletlik va hamda sinonimlarning semantik kategoriyalar o'rtasidagi mavqeyi, boshqa semantik kategoriyalar bilan munosabati hamda sinonimlar turlarining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligi tadqiqotlari natijasida yaratilgan asarlarda sinonimiya hodisasi, sinonimik munosabatlar, ularning turlari, sinonimlar tasnifi o'sha davr talabidan kelib chiqib yozilgan bo'lsa, hozirgi kunda ular semantika sohasining markaziy masalalaridan biri bo'lib, ularga berilayotgan ta'rif va tasniflar avvalgidan ham kengroq ma'noni anglata boshladi. Jahon tilshunos olimlari tomonidan kvazi-sinonimlarni tadqiq qilishga bo'lgan e'tibor ortgani, o'zbek tilshunosligida ham kvazi-sinonimlarni chuqurroq o'rganishga zamin yaratdi.

Respublikamizda ona tilimizni unga qardosh bo'lmagan hind-yevropa tillari bilan o'zaro chog'ishtirib o'rganish asosida tilshunoslikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lami ham sezilarli darajada kengaymoqda. Xususan, mustaqillikning ilk yillarida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bir til doirasida semantik kategoriyalarning jihatlarini va mohiyatiga bag'ishlangan bo'lsa, so'nggi yillarda tillarni chog'ishtirish orqali ularning farqli va o'xshash tomonlarini aniqlashga bag'ishlangan ishlar tobora dolzarb bo'lib borayotganiga qaramasdan, mazkur sohada o'z tadqiqini, yechimini kutayotgan masalalar hali mavjud. Chog'ishtirma aspektida o'rganilishi ham har ikki tildagi kvazi-sinonimlarning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlab, ulardagi tarjima muammolarni hal qilishga, tarjima lug'atlarini mukammallashtirishga hamda tarjima adekvatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida nafaqat sinonimlarning o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlash, balki ularning funksional jihatlarini o'rganish, o'zaro chog'ishtirish natijasida qo'lga kiritilgan natijalarning amaliyotga tatbiqini keng targ'ib qilish zarurati mavjudligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ingliz tilshunosligida so'zlararo ma'noviy munosabatga bo'lgan e'tibor o'tgan asr o'rtalarida ko'plab tilshunos olimlarda qiziqish uyg'otganligi yaratilgan asarlardan ma'lum. Ayniqsa, leksik munosabatlar, jumladan, sinonimlar doirasida olib borilgan tadqiqotlar ko'lami keng bo'lib ularning barchasiga batafsil to'xtalishni imkoni yo'q. Shu sababli sinonimiya yuzasidan yirik tadqiqot ishlari olib borgan ba'zi ingliz tilshunoslari, shuningdek, jahon olimlarni keltirib o'tishni lozim topdik. R.Xarris, Dj.Layonz, A.Kruz, X.Djekson, A.Lerer, L.Lipka, S.I.Xayakava, O.Erlix, Ch.V.Kreydler, K.Felbaum, G.Hirst, K.DiMarko, M.Stede, K.Kerns, A.Kit, P.Portner, L.Merfi, Djon I.Said, Dj.Yul, D.Gererts, Pol D.Elborn, M.Hahn<sup>1</sup> kabi olimlar leksik semantikaga doir salmoqli yangiliklarni fanga kiritib, asosiy e'tiborini leksik sinonimlarga qaratadi.

Rus tilshunoslaridan A.Smirnitskiy, V.Chernyak, I.Fomina, M.Palevskaya, Yu.Apresyan, V.Vilyuman, I.Arnold, S.Barxudarov, L.Novikov, Yu.Denisov, Yu.Litvinova, A.Bragina, V.Vinogradov, V.Grechko, A.Yevgenyeva, T.Vinokur<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Harris R. Synonymy and linguistic analysis. – Oxford: Blackwell, 1973. – P. 11.; Lyons J. Semantics (2 vols). – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 368 p.; Cruse D.A. Lexical semantics. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 1986. – P. 88.; Jackson H. Words and their meaning. – London: Longman, 1988. – P. 65.; Lehrer A., Kittay E.F. Frames, fields, and contrasts: New essays in semantic and lexical organization, Hillsdale. – NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – 451 p.; Lipka L. An Outline of English Lexicology. Lexical structure, word semantics, and word-formation. Second edition. – Germany: Max Niemeyer Verlag GmbH & Co. KG. Tübingen, 1992. – 212 p. – P. 142.; Hayakawa S.I., Ehrlich E. Choose the right word: A contemporary guide to selecting the precise word for every situation. – New York: Harper Perennial, 1994. – 532 p.; Kreidler C.W. Introducing English semantics. – London: Routledge, 1998. – P. 10.; Fellbaum C. WordNet: An electronic lexical database. – Cambridge, MA: MIT Press, 1998. – 422 p.; DiMarco Ch., Hirst G., Stede M. The semantic and stylistic differentiation of synonyms and near-synonyms. AAAI Spring Symposium on Building Lexicons for Machine Translation. – Stanford, CA, March, 1993. – P. 120.; Cruse A. Meaning in Language. – Oxford: Oxford University Press, 2000.- 411 p.; Kearns K. Semantics. – Basingstoke: Macmillan, 2000.- 280 p.; Kearns K. Semantics. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2nd edn. 2011. – 269 p.; Keith A. Natural Language Semantics. – Oxford: Blackwell, 2001. – 552 p.; Portner P., Partee B.H. Formal Semantics: The essential readings. – Oxford: Blackwell, 2002. – 496 p.; Portner P.H. What is Meaning? Fundamentals of formal semantics. – Oxford: Blackwell, 2005. – 224 p.; Murphy M.L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms. – New York: Cambridge University Press, 2003. – 292 p.; Saeed J.I., Semantics, 2<sup>nd</sup> edn. – Oxford: Blackwell, 2003. – 413 p.; Yule G. The Study of Language. – New York: Cambridge University Press, 2006. , 2006. – 273 p.; Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 317 p.; Elbourne P.D. Meaning: A Slim Guide to Semantics. – Oxford: Oxford University Press, 2011.- 174 p.; Hahn M. Synonyme und Quasisynonyme in Lexikografischer Hinsicht // Neuphilologische Mitteilungen. Vol. 105. No. 1. Modern Language Society. – Helsinki, 2004. – P. 3-20.

<sup>2</sup> Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1956. – 260 с.; Черняк В.Д. Синонимические ряды глаголов в современном русском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Л., 1973. – 23 с.; Черняк В.Д. Синонимия в русском языке. – М.: Издательский центр Академия, 2010. – 128 с.; Фомина И.В. Дифференцированная номинация в когнитивном аспекте (на материале супермногочисленных синонимических рядов в русском и английском языках): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 23 с.; Палевская М.Ф. Синонимы в русском языке. – М.:

kabi qator olimlar sinonimiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar sifatida e'tirof etiladi. Olimlarning tadqiqotlarida sinonimiyaning turli sathlarda va so'z turkumlarida namoyon bo'lishi o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida XX asrning 50-yillariga kelib sinonimlarni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganishga bo'lgan e'tibor boshlandi. Natijada hozirgi kunda sinonimlar doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga tayanch, poydevor bo'la oladigan ilmiy asarlar yozila boshlandi. Ayniqsa, F.Kamolov, G'.Abdurahmonov, S.Mutallibov, A.Hojiyev, Ya.Pinxasov, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Raxmatullayev, M.Mirtojiyev, I.Qo'chqortoyev, E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov, B.O'rinboyev, S.Usmonov, A.Nurmonov<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda o'zbek adabiy tili tarixidan to uning rivojlanish davrigacha bo'lgan ma'lumotlar berilgan. Ishimiz obyektini bo'lgan sinonimiya hodisasi doirasida chuqur izlanishlar olib borilgan bo'lib, ilmiy nuqtayi nazardan asosli ma'lumotlar berilib, salmoqli yangiliklar ilm-fanga kiritilgan.

XXI asrga kelib sinonimiya hodisasini har jihatdan o'rganishga bo'lgan ilmiy qarashlar ortdi. O'xshashlik kategoriyasi asosida shakllanadigan sinonimiya hodisasining o'rganilish tarixi va undagi masalalar S.Isamuhamedova, o'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari H.Shamsiddinov, gap sinonimiyasi R.Sayfullayeva, frazeologik sinonimlar tadqiqi M.Vafoyeva, stilistik sinonimlar A.Sharipova, lug'aviy sinonimiya va graduonimiya munosabatlari G'.Rahmonov, leksik sinonimiya masalalari I.A.Siddiqova kabi olimlar ishlarida tadqiq qilinganligi kuzatilsa, sinonim semalar tadqiqi F.Jumayeva, leksik sinonimlarning

---

Просвещение, 1964. – 126 с.; Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – М., 1974. – 368 с.; Вилломан В.Г. Английская синонимика. Введение в теорию синонимии и методику изучения синонимов. – М.: Высшая школа, 1980. – 128 с.; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959. – 352 с.; Бархударов С.Г. Лексическая синонимия (сборник статей) / Отв. редактор член-корр. АН СССР С.Г.Бархударов. – М.: Наука, 1967. – 178 с.; Лексическая синонимия: сборник статей / Под ред. С.Г.Бархударова. – М.: Академия, 2007. – 354 с.; Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1992. – 406 с.; Денисов Ю.Н. Синонимия и семантическая структура слова: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2000. – 180 с.; Литвинова Ю.А. Семантическая дифференциация единиц синонимических рядов, номинирующих городское поселение: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2020.; Брагина А.А. Синонимы в литературном языке. – М.: Наука, 1986. – 126 с.; Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – 588 с.; Гречко В.А. Лексическая синонимика современного русского литературного языка. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 1987. – 152 с.; Евгеньева А.П. Словарь синонимов русского языка. – Л.: Наука, 1975. – 618 с.; Винокур Т.Г. Синонимы // Русский язык: Энциклопедия / гл. ред. Караулов Ю.Н. – М.: Большая Российская энциклопедия, Дрофа, 1997. – 469 с.

<sup>3</sup>Kamolov F. Hozirgi zamon o'zbek tili. – T., 1957. – 528 b.; Hozirgi o'zbek adabiy tili // G'.A.Abdurahmonov tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1966. – 390 b.; Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, 1959. – 240 b.; Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – 308 b.; Hojiyev A. Sinonimiya // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 241 b.; Pinxasov Y. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1969. – 23 b.; Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 109 b.; Raxmatullayev Sh. Leksikologiya hamda frazeologiya. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: Fan, 1965. – 281 b.; Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2010. – 288 b.; Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. – Toshkent: Fan, 1977. – 168 b.; Begmatov E.va bosh. O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: O'zbekiston SSR Fan, 1981. – 315 b.; Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.; O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 2001.; Usmonov S. Hozirgi o'zbek tilida omonimlar va sinonimlar. – T.: TDPI, 1953. – B. 37-77.; Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 232 b.

leksikografik tadqiqi B.Daniyarov<sup>4</sup> kabi lingvist olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida sinonimlarga berilgan ta'riflar deyarli bir xil bo'lib, yillar o'tgani sari ular sayqallangan, ammo sinonimlarni tasniflashda olimlar yondashuvlari bir xil deya olmaymiz. Deyarli barcha tilshunos olimlarning sinonimlar tasnifida ideografik va stilistik sinonim turlarini uchratamiz, ammo sinonimlar absolyut, nutqiy, kontekstual, ekspressiv-emotsional kabi sinonim turlariga ham ajratilganligini va bu sinonim turlari bo'yicha olimlar fikri har xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, hozirda jahon tilshunosligida ko'pchilik tadqiqotchilarning qiziqishiga sabab bo'layotgan sinonimlarning kvazi-sinonim turi o'zbek tilshunosligida tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Turli tizimli tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarildi.

**Dissertatsiyaning maqsadi** qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillaridagi kvazi-sinonimlarning semantik va funksional jihatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va o'zbek tillarida sinonimlarning izohli lug'atlarida berilgan birliklarning mukammalligini ta'minlovchi tamoyillarni aniqlash;

ingliz tilshunosligida tadqiq etilgan kvazi-sinonimlarning o'zbek tilida ham mavjudligini dalillash;

ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy asarlarda qo'llanilgan kvazi-sinonimlarning kontekstual sinonimlardan farqli jihatlarini aniqlash;

chog'ishtirilayotgan tillarda kvazi-sinonimlarning matnda berilishidagi o'xshash hamda farqli jihatlar mavjudligini isbotlash.

**Tadqiqotning obyeksi** sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy asarlarda qo'llanilgan kvazi-sinonimlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** ingliz va o'zbek tillarida kvazi-sinonimlarning funksional xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida lingvistik tavsiflash, chog'ishtirma, struktur-semantik, diskriptiv va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida sinonimlarning izohli lug'atlarida berilishi

---

<sup>4</sup>Isamuhamedova S. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida sinonimlar: Filol. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 1963.; Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari: Filol.fan.dok. ... diss. – Toshkent, 1999. – 280 b.; Сайфуллаева Р.Р. Синонимия повествовательных предложений в современном узбекском языке: Автореф. дис. ...канд.филол. наук. – Ташкент, 1982. – 25 с.; Vafoyeva M.Y. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2009. – 127 b.; Sharipova A.A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan.nom. ... diss. – Toshkent, 2017. – 160 b.; Rahmonov G'.R. O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati: Filol.fan.nom. ... diss. – Farg'ona, 2019. – 156 b.; Сиддикова И.А. Синонимия языка и её кодификационные основы: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2012. – 408 с.; Jumayeva F.U. Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi: Filol.fan.nom. ... diss. – Farg'ona, 2018. – 137 b.; Daniyarov B.X. O'zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. – Samarqand, 2020. – 228 b.

yuzasidan ularning mukammalligini ta'minlovchi tamoyillar aniqlangan;

ingliz tilshunosligida tadqiq etilgan kvazi-sinonimlarning o'zbek tilida ham mavjudligi badiiy asarlarda uchraydigan sinonimik qator a'zolari juftligi ishtirokida shaxs, predmet yoki hodisani aniqlash va konkretlashtirish uchun qo'llanilganligi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi kvazi-sinonimlarning juftligi "ya'ni", "to'g'rirog'i" "aniqrog'i" kabi birliklar bilan ishtirok etsa, kontekstual sinonimlar esa faqat kontekstda har doim ham aniqlash va konkretlashtirish funksiyasini bajarmasligi hamda ular bitta sinonimik qatorga mansub bo'lmasdan denotatdan uzoq hisoblanishiga ko'ra farqlanishi aniqlangan;

ingliz tilida kvazi-sinonimlar "that is to say", "or rather", "or" kabi birliklar bilan kelsa, o'zbek tilida esa "ya'ni", "to'g'rirog'i" birliklari bilan berilishi o'xshash jihati, o'zbek tilida ulardan tashqari vergul, tire kabi tinish belgilari ishtirokida ham kelishi ingliz tilidan farqli jihati ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida sinonimlarning izohlari, ularning mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillar bilan ta'minlanishi asosiy ko'rsatkich ekanligi aniqlangan;

ingliz tilida o'rganilgan kvazi-sinonimlarning o'zbek tilida o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi sinonimlar lug'ati, badiiy asarlardan olingan misollar tahlili asosida ko'rib chiqilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda kvazi-sinonimlarning o'xshash hamda farqli jihatlari, ular bajaradigan funksiyalarni hisobga olish tarjima adekvatligini ta'minlashga yordam berishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning mavjud lingvistik nazariyalarga mosligi, chog'ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan keltirilgan muammolar yuzasidan ilmiy qarashlarning o'rganilgani, misol va masalalarning ishonchli manbalardan olinganligi, ingliz va o'zbek tillarida tahlilga tortilgan materiallarning metodologik puxtaligi, asosiligi, dissertatsiya ishi bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilgani, taklif, tavsiya va xulosalar asosida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillaridagi kvazi-sinonimlarga doir mavjud nazariy qarashlarni yangicha yondashuv orqali o'rganilishi hamda asoslanishi, ularning funksional jihatlaridagi o'xshash hamda farqliliklarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, tarjima jarayonida kvazi-sinonimlarning funksional xususiyatlarini aniqlash orqali tarjima usullarining tanlanishi semantika va tarjimashunoslik uchun nazariy asos vazifasini o'tash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kvazi-sinonimlarning gapdagi ishtiroki, ularning semantikasi, funksiyalarini o'rganish yuzasidan olingan natijalar "Leksikologiya", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Chog'ishtirma tilshunoslik", "Zamonaviy lingvistika", "Lingvistik tarjimashunoslik" kabi fanlardan ma'ruza, seminar mashg'ulotlari hamda maxsus kurslarni tashkil qilish, ushbu fanlarga oid

darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirishdagi qo'shiladigan samarador hissasi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tillarida kvazi-sinonimlarning funksional xususiyatlarini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar hamda amaliy takliflar asosida:

xalqaro hujjatlarni tarjima qilish jarayonida o'zbek tilidan ingliz tiliga hamda ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan matnlardagi kvazi-sinonimlar o'rtasidagi tafovutlarining aniqlanishi, ular bajaradigan funksiyasiga ko'ra mos tarjima usullarini qo'llash yuzasidan amaliy tavsiyalari 2020-2022-yillarda loyiha materiallarini tarjima qilishda O'zbekiston Milliy Universiteti "O'zbekiston Xalqaro standartlar asosida ijtimoiy ish sohasi kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish (UNICEF)" nomli xalqaro loyihasida asosiy manba sifatida xizmat qildi. Natijada, tarjima qilingan matnlar ma'no va mazmun jihatdan to'g'ri hamda kontekstga mos ravishda tarjima qilinishiga erishildi;

badiiy asar tarjimasida kvazi-sinonimlarning roli va o'rni, bunda kontekstning o'zgarishiga sabab bo'ladigan omillar o'rganilganligi, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berilganligi borasidagi ilmiy xulosalaridan 2022-2023-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariylarini yozishda foydalanildi. Natijada, radiodasturlarda berilgan mazkur ilmiy yangilik ma'lumotlari tinglovchilarning kvazi-sinonimlarning roli va o'rnini aniqlashda, sinonim turlari o'rtasidagi farqlarni ajratishdagi bilimlarining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi;

ingliz va o'zbek tillarining izohli lug'atlari, sinonimlar izohli lug'atlarida har bir leksik va sinonimik birlikning berilishi yuzasidan olib borilgan tahlillar asosida ularning mukammalligini ta'minlovchi tamoyillar aniqlangan bo'lib, yaratilajak sinonimlarning izohli lug'atini mukammallashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti tomonidan 2021-2022-yillarda bajarilgan IL-21071156 raqamli "Antroposentrik tilshunoslik terminlari izohli lug'ati"ni yaratish jarayonida foydalanildi. Natijada, mazkur lug'at tarkibida mavjud bo'lgan sinonimlarning izohlari mukammallashtirildi, shuningdek, lug'atdan foydalanuvchilarga tushunarli, sodda va qulay izohlar bilan boyitildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mazmuniga doir maqola va tezislar bilan 6 ta respublika hamda 2 ta xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 127 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda sinonimlar, ularning turlari va sinonimlarni o‘rganishga yangicha yondashuv”** deb nomlanadi. Mazkur bobda jahon tilshunosligida semantika sohasining vujudga kelishi va rivojlanishi, sinonimiyaga berilgan ta’rif va tasniflar, sinonimlarni turlarga ajratishda qo‘llanilgan yondashuvlar batafsil tahlil qilinadi. Turli tizimli tillarda ilk tadqiqotlar, asosan, sinonimik munosabatni yuzaga kelturuvchi so‘zlar o‘rtasidagi ma’noning o‘xshashligi va bir xilligiga qaratilganligi, keyinchalik tadqiqotlar ko‘lami kengayib, sinonimlarning chuqurroq tadqiq qilinishi ulardagi farqli jihatlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga olib kelishi, natijada aksariyat ilmiy tadqiqotlar sinonimlarni farqli xususiyatlarini ochib berishga qaratilganligi haqida so‘z yuritiladi.

Tilshunoslik fanining ba’zi sohalari olimlarning qarashlari, izlanishlari hamda mazkur sohalarni o‘rganishga turlicha yondashuv orqali munosabatlariga ko‘ra turli davrlarda o‘zgacha atalganligini ko‘rsatadi. Xususan, tilshunoslikda, o‘rganishimiz lozim bo‘lgan soha semantikaning ham turlicha nomlanishiga duch kelindi. Ba’zi tilshunos olimlar tomonidan semantika termini o‘rnida semasiologiya termini qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, semasiologiya termini ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchi ma’nosi til birliklarining ma’nosini o‘rganuvchi soha bo‘lib, bu o‘rinda semantika termini bilan sinonimdir. V.G.Sudilovskaya bu fikrga qo‘shilgan holda “Semantika – semasiologiya so‘ziga qisman sinonim” ekanligini ta’kidlaydi<sup>5</sup>. Ikkinchi ma’nosi esa leksik semantikaning bir bo‘limini nomlashi nazarda tutilgan. Shu sababli ko‘pgina tilshunoslar til birliklarining ma’nosini o‘rganuvchi sohani semasiologiya emas, balki semantika deb nomlaydilar.

Jahon tilshunosligida olimlar tomonidan sinonimlarga berilgan ta’riflarda katta farq sezilmasligi, ammo ularni turlarga ajratishda turli xil qarashlar mavjudligi, shuningdek, bir xil sinonim turiga bitta ma’noni anglatuvchi turli xil ekvivalent terminlar qo‘llanilganligi, sinonimlarni tasniflashda turli yondashuvlardan foydalanilganligi va natijada tilshunoslarni o‘z taksonomiyalarini ishlab chiqishga sabab bo‘lganligi tahlil qilinadi.

Ingliz tilshunosligining ilk manbalarda sinonimlar asosan *absolyut*, *proportional*, *plesionim*, *tasvirlovchi sinonim*, *kontekstga tobe sinonim* va *kontekst*

---

<sup>5</sup> Судиловская В.Г. Введение в лексикологию. – Санкт Петербург, 2018. – С. 4.

*jihatdan cheklangan sinonim* kabi sinonim turlariga bo‘lib o‘rganilgan<sup>6</sup>. Ayrim mashhur olimlar hamkasblarining ilmiy qarashlarini ma’qullaganliklarini, boshqalari esa qarshi fikr bildirganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, dastlabki tadqiqotlar asosan ma’noning bir xilligiga qaratilib, bunda mashhur tilshunoslar A.Kruz, Dj.Layonz, L.Merfi, Yu.Apresyan, D.Shmelev kabi olimlarning ilmiy qarashlari bir-biriga to‘g‘ri kelgan. Jahonning ko‘pgina olimlari tabiiy tilda absolyut sinonimlar borligiga shubha bilan qarab, absolyut sinonimlar mavjud bo‘lsa ham, ular juda oz ekanligini ta’kidlaydilar. F.de Sossyur, L.Blumfeld, L.Veysgerber, S.Ulman, K.Erdman, T.Shippan kabi olimlar esa tabiiy tillarda absolyut sinonimlar borligini rad etadilar. Biz ham bu fikrga qisman qo‘shilamiz, sababi tabiiy tildagi ko‘pgina sinonim so‘zga absolyut sinonim qilib boshqa tildan kirib kelgan so‘zlar olingan. Masalan, *tashviqot – agitatsiya, tilshunos – lingvist, muallif – avtor*. Misollarda ko‘ringanidek, absolyut sinonimlardan biri tabiiy tilga xos bo‘lib, ikkinchisi boshqa tildan o‘zlashgan.

Tilda absolyut sinonimlar oz ekanligiga sabab, lug‘atda bir sinonimik qatorda kelgan so‘zlar bir-biridan ma’no ottenkasi yoki stilistik bo‘yoq yoki har ikkala xususiyatlari bilan farq qilishidadir<sup>7</sup>. Rus tilshunos olimi Yu.Apresyan lug‘atlarda bir sinonimik qatorda kelgan so‘zlar har doim ham biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanila olmasligini ta’kidlaydi. U *sink* va unga sinonim bo‘lgan *drown* fe’lini misol qilib keltirar ekan, *sink* cho‘kib ketgan kemalar, qayiqlar va boshqalarga nisbatan ishlatilishini, *drown* esa cho‘kib ketgan shaxsga yoki narsaga nisbatan qo‘llanilishini ta’kidlaydi<sup>8</sup>. Demak, har ikki so‘z cho‘kmoq semasida birlashishiga qaramasdan, ishlatilish ko‘lamiga ko‘ra farq qiladi. Bu xususiyat esa ularning ko‘p hollarda biri ikkinchisini o‘rnida qo‘llanila olmasligini ko‘rsatadi. Tilshunos olim ushbu ishida shuningdek, *breast – udder* va *tell – say* so‘zlari o‘rtasidagi farqli xususiyatlarni ham misollar orqali tushuntirib berishga harakat qiladi. Bu nazariyasi uning sinonimlar tasnifiga kvazi-sinonim turini kiritishiga sabab bo‘ldi. Olim 1995-yilda qayta nashrdan chiqqan “Лексическая семантика” nomli kitobida kvazi-sinonimlarga batafsil to‘xtalib o‘tadi va ularni tadqiq qilar ekan kvazi-sinonimlar aniq sinonimlardan semantik jihatdan farq qilishini hamda ma’nosi bir-biriga to‘liq mos tushmasligini qayd etadi<sup>9</sup>. Yu.Apresyan, shuningdek, kvazi-sinonimlarning sinonimik qatorini ishlab chiqish kerakligini ta’kidlab, aniq sinonimlar semantik jihatdan bir-biridan farq qilmagani uchun sinonimik qator ichki tuzilishga ega emasligini ta’kidlaydi. Aniq sinonimlardan farqli o‘laroq kvazi-sinonimlar ma’no jihatidan murakkab yo‘llar bilan farqlangani bois, kvazi-sinonimlar sinonimik qatorini ham kichik sinflarga bo‘lish zarur, sababi kvazi-sinonimlar turli xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi degan fikrni bildiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda ma’noning bir xilligidan voz kechilib,

<sup>6</sup> Cruse A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.88.; Lyons J. Language and linguistics. – Cambridge: Cambridge Univeristy Press, 1981. – P.149.; Murphy M.L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms. – New York: Cambridge Univeristy Press, 2003. – P.150.

<sup>7</sup> Апресян Ю.Д. Проблема синонимии. Вопросы языкознания. – Москва: Издательство академии наук СССР, 1957. – С. 85.

<sup>8</sup> Yuqoridagi asar. – С. 87.

<sup>9</sup> Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. 2-издание, исправленное и дополненное // “Восточная литература” РАН. – Москва, 1995. – С. 235.

sinonimlardagi farqli jihatlar qay xususiyatlariga ko'ra biri ikkinchisini barcha kontekstlarda birday bosa olmasligiga bo'lgan qiziqishni ortishiga olib keldi. Bu esa tabiiyki, ko'pchilik tilshunos olimlar taksonomiyasidan joy olgan *yaqin-sinonim*, ya'ni *kvazi-sinonimlarni* chuqurroq tadqiq qilishga sabab bo'ldi. "Yaqin-sinonimlar ma'nosiga ko'ra ko'proq yaqin yoki aksincha kamroq yaqin leksemalar bo'lishi mumkinligi olimlar tomonidan qayd etiladi. Ammo bu ta'rif ham yaqin-sinonimlarga nisbatan aynan mos ta'rif deb tan olish unchalik to'g'ri emas" degan fikrni ham inkor etmaydilar<sup>10</sup>. A.Kruz kvazi-sinonimlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri ularni bir kontekstda birga kelib, farqlanishida ekanligini ta'kidlaydi. Bunga misol qilib, *to kill* va *to murder* fe'llarining lug'atlardagi izohlariga murojaat qilib, ulardagi o'xshashlik va yaqinlikni o'rganish orqali bitta gap tarkibida qo'llanilganda, ular o'rtasida farqni ko'rsatib o'tadi:

*He was killed, but I can assure you he was NOT murdered, madam*<sup>11</sup>.

Demak, kvazi-sinonimlar doim bitta lug'at yozuvi ostida keltirilgan atamalarning aksariyati kognitiv sinonimlar deb hisoblanmagan sinonimlar lug'atlarida yoki tezauralarda uchraydi. A.Kruz bilan bir vaqtda ijod qilgan Dj.Layonz, L.Merfi va boshqa olimlarning qarashlari ham xuddi shunday ekanligi tadqiqotimiz davomida namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida sinonimik munosabatlar**" deb nomlanadi. Ushbu bobda ingliz tilida sinonimlar va ularning lug'atlarda berilishi, shuningdek, o'zbek tilida sinonimik munosabatlar va ularning leksikografik talqini hamda o'zbek tilida sinonimlarni o'rganish va tadqiq etish bo'yicha yangicha yondashuvlar haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan leksikografiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, sinonimlarning lug'atlarda berilishi, tizimlilik hamda izohlarning mukammalligi ushbu sohada qilinishi lozim bo'lgan vazifalardan biridir. Ingliz tili o'ziga xos sinonimlarga juda boy hisoblanadi, ba'zan, ma'nosi o'xshash so'zlar orasidagi farq shu qadar nozik va farqliligi deyarli ko'rinmaydiki, buning yechimini faqat lug'atdan topish mumkin.

1968-yil Amerika kompaniyasi, ma'lumotlar va leksik lug'atlar nashriyoti Merriam Webster tomonidan Webster's New Dictionary of Synonyms lug'ati taqdim etildi. Keyinchalik 1984-yilda ushbu lug'at klassik va zamonaviy yozuvchilarning minglab tegishli iqtiboslari bilan to'ldirilib, qayta nashrdan chiqdi<sup>12</sup>. Lug'atdagi **beautiful** so'zining sinonimlarining berilishi tahlil qilinib, uning tarkibi va izohlariga oid xulosalarga kelindi.

Lug'atdagi izohlarning berilishini quyidagi ketma-ketlik asosida tuzilgan:

1. *Lug'atda har bir so'z qisqa umumiy ta'rifdan boshlangan;*
2. *Har bir ajratilgan so'z uchun maxsus ilovalar va ma'nolari berilgan;*
3. *Ma'lumotni tez olish uchun har bir ajratilgan so'z alifbo tartibida keltirilgan;*

<sup>10</sup> Murphy M.L. *Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms.* – New York: Cambridge University Press, 2003. – P. 155.

<sup>11</sup> Cruse A. *Meaning in Language.* – Oxford: Oxford University Press, 2000. – P. 159.

<sup>12</sup> Webster's New Dictionary of Synonyms. Gove Ph.B., editor. G.&C. Merriam Co. Merriam-Webster INC., Publishers Springfield, Massachusetts. – U.S.A., 1984. – 909 p.

4. Antonimlar va qarama-qarshi soʻzlar ham berilgan;

5. Mashhur yozuvchilarning asarlaridan olingan misollar izohda berilgan soʻzning qanday ifodalanishini, qanday vaziyatlar va kontekstda ishlatilishini qoʻshimcha maʼlumotlari bilan koʻrsatib berilgan;

6. Bu tartibda soʻzlarning berilgan tizimi bogʻlangan soʻzlarni topishda yordam bergan;

7. Sinonimlar qatoridagi har bir soʻzning batafsil muhokamasi kerakli soʻzni toʻgʻri joyda qanday ishlatishni koʻrsatgan;

8. Maʼnosi bir-biriga yaqin boʻlgan oʻxshash soʻzlar birgalikda guruhlangan<sup>13</sup> (dissertant tarjimasi).

Demak, ushbu maxsus xususiyatlar Vebsterning yangi sinonimlar lugʻatidan foydalanishni oson, aniqroq va toʻliqroq qiladi.

Dissertatsiyada Merriam Webster tomonidan *Webster's New Dictionary of Synonyms* lugʻatiga murojaat qilingan, shuningdek, keyinchalik Jeyms Chaplin Fernald tomonidan yozilgan *English Synonyms and Antonyms* lugʻatining oʻxshash va farqli tomonlari, afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishga harakat qilingan, bundan tashqari, S.Folovs tomonidan nashr qilingan *A complete dictionary of synonyms and antonyms* lugʻatda sinonimlar qay tartibda berilgani keltirilgan.

Oʻzbek leksikografiyasida sinonimlar izohiga bagʻishlab yozilgan ilk katta asar akademik A.Hojiyev tegishli hisoblanadi. Mazkur lugʻatda muallif A.Hojiyev har bir leksik sinonimlar nimalardan tashkil topganligi quyidagicha izoh berib ketgan:

“1) sinonimik qator;

2) sinonimik qatordagi soʻzlar uchun umumiy boʻlgan maʼnoning izohi;

3) sinonimik qatordagi har bir soʻzga xos xususiyatning taʼrifi;

4) sinonimik qator va har bir sinonimga berilgan taʼrifni tasdiqlovchi misol-sitatlar. Sheʼriy asarlardan olingan parchalarda misralar ketma-ket yozildi, misra boshidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlandi”<sup>14</sup>.

A.Hojiyev muallifligida yozilgan “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati” dan soʻng yaratilgan 2 jildli “Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati” hozirgi oʻzbek tili uchun ahamiyatli boʻlgan sinonimik qatorlarni qamrab olgan. Mazkur lugʻatga leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi soʻzlarning maʼno nozikliklari, bu maʼnoviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy oʻziga xosliklarini koʻrsatuvchi illyustrativ misollar kiritilgan<sup>15</sup>. Bundan tashqari mualliflarning qayd etishiga koʻra, “Lugʻat maqolalari sinonimik qatordagi bosh soʻzning ilk harflari asosida alifbo tartibiga solingan. Har bir lugʻat maqolasi quyidagilardan tashkil topgan: 1) sinonimik qator; 2) ushbu qator uchun umumiy boʻlgan maʼnoning izohi; 3) qatordagi har bir soʻzning maʼno nozikligi tavsifi (zarur boʻlganda); 4) nutqiy uslubga aloqasi; 5) nutqdagi faollik darajasi; 6) lingvokulturologik belgilari (milliy-madaniy taʼkid, erkak-ayol nutqiga

<sup>13</sup> Webster's New Dictionary of Synonyms. Gove Ph.B., editor. G.&C. Merriam Co. Merriam-Webster INC., Publishers Springfield, Massachusetts, U.S.A. 1984. – P. 2.

<sup>14</sup> Hojiyev A. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent. 1974. – B.6.

<sup>15</sup> Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati. N.Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 13.

xoslik kabi mavjud bo'lsa); 7) o'zbek adabiyoti namunalaridan olingan sinonimik qatordagi har bir so'zning tegishli ma'nosini dalillovchi misollar"<sup>16</sup>.

Tadqiqotimiz davomida yuqorida keltirib o'tilgan tilshunoslarning yaratgan lug'atlari qay tarzda tizimlashtirilganini tahlil qildik. Ikkita lug'atni tahlil qilish natijasida o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi hamda olimlar tomonidan har bir sinonimik qator a'zosi uchun xos bo'lgan o'lchovlar ba'zan berilganligi va ba'zan berilmaganligi kuzatildi (Qarang: 1-ilova).

Ingliz tilida sinonimlarga bag'ishlab yozilgan lug'atlarni tahlil qilib, o'zbek tilida sinonimlarning izohli lug'ati ham qaytadan tizimlashtirilishi kerak degan fikrni bildirish lozim topildi va tavsiyalar ishlab chiqildi (Qarang: 2-ilova).

O'zbek tilining "Leksikologiya" bo'limida "Sinonimlar" mavzusi uzoq o'tmishga ega bo'lsa-da, XX asrning 50-yillariga kelib ularni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Tadqiqot ishimizda sinonimiya hodisasini chuqur o'rganib, tahlil qilgan mashhur o'zbek tilshunos olimlarning sinonimlarga bergan ta'riflarini berganmiz. Sinonimlarga berilgan ta'riflaridan eng muhim belgilarini keltirib avtoreferatning 3-ilovasida keltirib o'tganmiz (Qarang: 3-ilova).

Sinonimlar bir-biridan anglatgan ma'no qirrasiga, stilistik bo'yog'iga, nutqiy xoslanishiga ko'ra farq qiladi. Ba'zan sinonimlar har uch jihatdan, ba'zan esa shularni biri orqali farqlanishi mumkin. Shu sababli ko'pchilik tilshunoslar leksik sinonimiyani uch nuqtayi nazardan tadqiq qilganlar. Lekin olimlar, xususan, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev bu tasnif o'zlarining qarashlari mahsuli ekanligini, bunga sinonimlarni to'liq uchga tasniflash deb qarab bo'lmasligini ta'kidlaydilar. Tilshunoslar sinonimlar ma'no qirrasini jihatidan farqlanib tursa, **ideografik sinonimlar (ma'no sinonimlar)**, stilistik bo'yog' jihatidan farqlansa, **stilistik sinonimlar**, nutqiy xoslanish belgisi jihatidan farqlansa, **nutqiy sinonimlar** ekanligini ta'kidlaydilar. Sinonimlarni tavsiflashda ko'pchilik tilshunoslar ularni ma'no munosabatiga ko'ra uch guruhga bo'lib o'rgangan bo'lsa, ayrimlari ularni ikkiga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'rganlar. Masalan, Ya.D.Pinxasov sinonimlarni qo'llanishi va ma'no o'ttenkasi bilan farq qilishiga ko'ra ikkiga **ideografik** hamda **stilistik sinonimlarga**<sup>17</sup> ajratadi. Tilshunos olim G'.Abdurahmonov esa sinonimlar ma'nosi va qo'llanishiga ko'ra **ideografik, emotsiyali va ekspressiv-stilistik sinonimlarga** bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radi. I.Qo'chqortoyev va R.Qo'chqortoyevalar sinonim so'zlar bir tushunchani ifodalasa ham, lekin semantik tomondan biri ikkinchisini to'la qoplaydigan so'zlar emasligini ta'kidlaydilar. Muayyan sinonimik uyaga mansub bo'lgan sinonim so'zlarning tasnifi qilinganda, ularning mana shunday spesifik xususiyatlari e'tiborga olinadi<sup>18</sup>. Shunga ko'ra ular sinonimlarni **ideografik, stilistik va ekspressiv-emotsional sinonimlarga** ajratadilar. Sinonimlarning yana bir turi **kontekstual sinonimlar** bo'lib, nisbatan kam tadqiq qilingan va hamma tilshunoslarning ham sinonimlar guruhidan joy olmagan. Hamkasblaridan farqli o'laroq, A.Sharipova tilda sinonimlarning **soxta sinonimlar**

<sup>16</sup>O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 13.

<sup>17</sup> Pinxasov Y.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1969. – B. 23.

<sup>18</sup> Qo'chqortoyev I., Qo'chqortoyeva R. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1976. – B. 37.

deb ataladigan turi ham mavjudligini ta'kidlaydi. "Ular bir xil kategoriyaga ega bo'lgan turli predmetlarni atashda qo'llanadi..."<sup>19</sup> degan fikrni ilgari suradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Kvazi-sinonimlar va ularning chog'ishtirilayotgan tillarda funksional xususiyatlari**" deb nomlangan. Ushbu bobda ingliz tilida kvazi-sinonimlarni leksik sathda qanday aniqlanishi va ularning boshqa sinonim turlaridan farqi, shuningdek, gapda bajaradigan funksiyasi nimalardan iborat ekanligi tadqiq qilingan.

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab sinonimlarni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish boshlangandan to hozirgi kungacha sinonimlarning *near-synonym* turi manbaalarda ko'pincha shu nom bilan kelgan. Lekin *near* so'zi bu termin yasovchi birlik emasligini hisobga olsak, zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilib kelayotgan *quasi-* termin hosil qiluvchi morfemani qo'llash maqsadga muvofiq.

Etymonline ma'lumotlariga ko'ra, "*quasi*" so'zi XV asr oxiridan boshlab ingliz tilida qo'shimcha va sifat-dosh sifatida ishlatilgan<sup>20</sup>. *Kvazi* lotin tilidan olingan bo'lib, asl lotin tilida faraziy taqqoslashda ishlatiladi. Bu so'z lotincha *quam* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ingliz tilida *as*<sup>21</sup> *almost*<sup>22</sup> - *dek, deyarli* ma'nolarini anglatadi. Merriam-Webster ingliz tilining izohli lug'ati, shuningdek, American Heritage va Collins English Dictionary kabi boshqa lug'atlardagi izohlarga ko'ra, "*quasi*" so'zi ko'pincha ba'zi sifatlar kabi boshqa so'zlar bilan birlashuvchi morfema sifatida ishlatiladi. Kvazi so'zi ba'zan chiziqcha bilan ba'zan chiziqchasiz ishlatilishi mumkin.

Word Sense tomonidan "*quasi*" termini bilan bog'liq so'zlar ro'yhati e'lon qilindi: *quasielastic, quasi-copula, quasi-molecular, quasi-material, quasistatic, quasipositive, quasi-permanent, quasi-hallucinatory, quasi-stationary, quasi-metallic, quasifission, quasi-optical, quasi-substance, quasispecies, quasi-dying, quasiaesthetic, quasidiploid* va hokazo. Dissertatsiyada biz ana shu ro'yxatni sohalar kesimida bo'lib chiqdik.

Demak, *quasi* termin hosil qiluvchi morfema hisoblanib, so'zlarga birikib kelib, yangi termin hosil qiladi. A.Kruz bu termini tilshunoslikda ilk bor qo'llagan olimlardan biri hisoblanib, *quasi-relations*, ya'ni kvazi-munosabatlar haqida ozroq ma'lumot beradi<sup>23</sup>. Shunisi ahamiyatliki, A.Kruz *quasi* terminini qo'llagan bo'lishiga qaramasdan, sinonimlarni turlarga ajratganda yaqin-sinonim ma'nosida **plesionym** va **near-synonym** terminini qo'llaydi hamda quyidagicha ta'rif beradi: "Plesionimlar kognitiv sinonimlardan turli xil haqiqat-shartli gaplar hosil qilishi bilan ajralib turadi: parallel sintaktik vaziyatda plesionimlar sababli farq qiladigan ikkita gap o'zaro bog'liq bo'lmaydi, garchi leksik birliklar giponim munosabatda bo'lsa ham, bunday vaziyatda bir tomonlama mantiqiy natija bo'lishi mumkin"<sup>24</sup> (Dissertant tarjimasini). L.Merfining qarashi A.Kruznikiga mos ekanligini ko'rishimiz

<sup>19</sup> Sharipova A.A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan.nom. ... diss. – Toshkent, 2017. – B. 26.

<sup>20</sup> <https://www.etymonline.com>

<sup>21</sup> <https://thewordcounter.com>

<sup>22</sup> <https://en.wikipedia.org>

<sup>23</sup> Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 1986. – P. 97.

<sup>24</sup> Yuqoridagi asar. – P. 285.

mumkin: “**Near-synonyms:** expressions that are more or less similar, but not identical, in meaning”<sup>25</sup>. “Yaqin-sinonimlar ko‘proq yoki kamroq o‘xshash, lekin ma’no jihatidan bir xil bo‘lmagan so‘zlardir”. Demak, kvazi-sinonimlar ma’no jihatidan o‘xshash, ammo ishlatilishidagi biroz farqlanishiga ko‘ra bir-birini o‘rnini bosa olmaydi. Kvazi-sinonimlar kontekst talab qiluvchi va lug‘aviy ma’nosidan biroz bo‘lsa-da uzoqlashib, kontekstga yaqinlashadigan, o‘zining ma’nodoshlaridan biroz farqlanadigan so‘zlar hisoblanadi. Shu sababli A.Kruz kontekstda bir kvazi-sinonimni o‘rniga, ikkinchisini tasdiqlash kvazi-sinonimlarning asosiy belgisi ekanligini ta’kidlaydi:

*It wasn't foggy last night, it was just misty*<sup>26</sup>.

Ma’lumki, *foggy* quyuq tuman ma’nosini ifodalaydi, *misty* esa yengil tuman ma’nosida qo‘llanadi. Demak, ular gapda birining o‘rniga ikkinchisining qo‘llanilishi mumkin holat hisoblanada, bunda birinchisiga inkorlik yuklamasi berilib, unga yaqin ma’nodoshi berilishi natijasida voqelikka yanayam aniqlik kiritiladi (*wasn't foggy – just misty*). Bu kvazi-sinonimga xos bo‘lgan asosiy xususiyat hisoblanadi.

Ko‘p hollarda sinonimlar qatoridan kognitiv sinonim va kvazi-sinonimni ajratib olish o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirganligi sababli bunday tadqiqotlar zarur hamda dolzarb hisoblanadi. Hatto A.Kruz ham plesionim (kvazi-sinonim) va kognitiv sinonim o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatib berishga harakat qiladi, ya’ni plesionimik munosabat *not exactly* va *more exactly* birliklari orqali gapda ishtirok etadi. Kvazi-sinonimlar gapda kichik bo‘lsa-da, bir-biridan farqlarini ko‘rsatishga xizmat qilar ekan, bunda, albatta, yaqinlikni ifodalovchi kvazi-sinonimlar ishtirok etishi tabiiy. Yuqoridagi fikrimizni quyidagi misol orqali dalillashga harakat qilamiz:

A) *He kicked the bucket – or, more exactly, he died.*

B) *Is that your daddy?*

*Not exactly – it's my father*<sup>27</sup>.

Yuqoridagi misollarimizda a) gapdagi *kick the bucket* (olamdan o‘tdi) inglizcha idiom bo‘lib, evfemistik, norasmiy yoki jargon sifatida qo‘llanadi va o‘lmoq ma’nosini ifodalaydi. *Die* (o‘lmoq) esa yashashdan to‘xtash ma’nosida keladi. Demak, ular bir-biridan farq qilmoqda va kontekstda ulardan biri ikkinchisini aniqlashtirib kelmoqda; b) gapda *daddy* so‘zi bizni tarbiyalaydigan insonga nisbatan ishlatiladi va u bizning biologik otamiz bo‘lmasligi ham mumkin, ammo *father* so‘zining tub ma’nosida biologik ota yotishi, bu dialogdagi *daddy bilan father so‘zi o‘rtasida farqlilik mavjud bo‘lganligi sababli, yanada aniqlik kiritish maqsadida, not exactly birligini qo‘llash orqali father ishlatilgan*. Bundan ko‘rinib turadiki, tarjimada va lug‘atda ularning ma’nolaridagi bir xillik kuzatilishiga qaramasdan, ulardagi farqlilik darajasi kontekstdagi aynan *not exactly* orqali konkretlashtirish, aniqlashtirish maqsadi mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ular kognitiv sinonim emas, chunki kognitiv sinonimlar bitta gap

<sup>25</sup> Lyons J. Linguistic Semantics. An Introduction. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 1995. – P. 60.

<sup>26</sup> Cruse D.A. Lexical semantics. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 1986. – P. 285.

<sup>27</sup> Yuqoridagi asar. – P. 286.

tarkibida qo'llanilishi mumkin, ammo biri ikkinchisining aynan o'zi hech qanday konkretlashtirish va aniqlik kiritishga xizmat qilmaydi. Ular bitta gap tarkibida ketma-ket qo'llanilishi gapning mazmuniga bo'yoqdorlik, jozibadorlik bag'ishlash uchun ishlatiladi.

Sinonimiya hodisasi tilshunosligimizda asosan semasiologik aspektda o'rganildi. Sinonimiyaning funksional aspekti tilshunoslarimizning e'tiboridan chetga qoldi<sup>28</sup>. H.Shamsiddinov o'zining doktorlik dissertatsiyasida shunday ta'kidlaydi: o'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasi so'z doirasida o'rganilganligini ta'kidlash lozim. Sinonimiyaning o'ziga xos xususiyatlarini ochish va uni ta'riflash asosan so'z doirasida amalga oshirildi. Ko'plab mualliflar o'zlarining ma'lum bir yozuvchi ijodiga yoki ma'lum bir asarning til xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham sinonimlarni so'z doirasida o'rgandilar<sup>29</sup>. Tadqiqotimiz jarayonida bu fikr haqiqatga ancha yaqin ekanligini guvohi bo'ldik.

Ideografik sinonimlardan farqli o'laroq kvazi-sinonimlar biri ikkinchisidan bir necha xususiyatlarga ko'ra farq qiladi, shu sababli ularni ko'pincha biri o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi. Ideografik sinonimlar bitta gapda birga kelib, gapning ta'sirchanligini oshirsa yoki alohida gaplarda kelib takroriylikdan qochish uchun ishlatilsa, kvazi-sinonimlar gapga aniqlik kiritish uchun ishlatiladi va ko'pincha ingliz tilidagi *or rather, or, that is to say*, ya'ni o'zbek tilida *to'g'rirog'i, ya'ni* bog'lovchilari bilan keladi:

*Podsholikning pattalik soliqlari, ya'ni o'lpon va tutun pullarini hammadan kech to'laydigan, ammo qorovul puli va kapsan kabi pattasiz soliqlarni sira to'lamasdan, ellikboshi va aminlarga o'shqirib muomila qiladigan bu pulzo'rlar yolg'iz Qosim laylakka emas, boshqa ellikboshi va aminlarga ham uncha yoqmasidilar (Kecha va kunduz. – B. 233 // www.ziyouz.com kutubxonasi).*

**SOLIQ** Davlat tomonidan amaldagi qonunlar asosida yuridik va jismoniy shaxslarning daromadi yoki mol-mulkidan undiriladigan hamda byudjetga o'tkaziladigan majburiy to'lov<sup>30</sup>.

**O'LPON** Yerdan foydalanganlik uchun olinadigan soliq; yer solig'i<sup>31</sup>.

Lug'atdagi izohdan shuni anglash mumkinki, davlatga to'lanadigan har qanday to'lov turi soliq deb ataladi, ammo o'lpon faqat yerdan foydalanganlik uchun olinadigan soliq turiga aytiladi. Demak, kontekst barcha soliq turini nazarda tutmaganligi bois, unga aniqlik kiritish maqsadida *o'lpon* so'zi unga kvazi-sinonim qilib olinganligini va kvazi-sinonimlar *ya'ni* birligi bilan bog'lanib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilida kvazi-sinonimlar ba'zan bog'lovchi so'zlarsiz ham keladi va gapni konkretlashtirishga xizmat qiladi. Ingliz tilida esa bunday gaplar tadqiqotimiz davomida juda kam uchradi.

*Har bir shahar-qishloqning to'yga xos o'z odatlari, udumlari bor* (Tohir

<sup>28</sup> Qo'chqortoyev I. Lug'aviy sinonimik vositalar va ularning asosiy turlari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1987. 3-son. – B. 3.

<sup>29</sup> Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari: Filol.fan.dok....dissert. – Toshkent, 1999. – 13 b.

<sup>30</sup> Madvaliyev A. tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 547 b.

<sup>31</sup> Yuqoridagi asar. – B. 151.

Malik. Tosh qalblarga zinhor nazar solinmas. – Toshkent, 2010. – B. 67).

O‘zbek tilining izohli lug‘atida **odat** – o‘rganish bo‘lib qolgan harakat, qiliq. *Yaxshi odat. Yomon odat. Sening odating menga ma‘lum. Bu otning tishlaydigan odati bor. Odat qilmoq. Tarki odat – amri mahol.* Maqol. – *Hasanalining ortiqcha berilib o‘ylagan kezda soqolini qayirib tishlaydigan bir odati bo‘lib, hozir ham soqolini yamlash bilan mashg‘ul edi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Har qanday yerga so‘ramay-netmay kirib boraverish oqsoqolga odat edi.* P.Tursun, O‘qituvchi<sup>32</sup> deb ta‘rif beriladi va misollar orqali yoritiladi. Ko‘rinadiki, odat, asosan, shaxsga nisbatan ishlatiladi. **Odat** leksemasidan farqli o‘laroq **udum** – umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartibni ifodalab keladi. *Toshkentlikda bag‘oyat qadim Yashab kelar ezgu bir udum: Uchrashganda birinchi so‘roq – “Tinchlikmi?” deb hol surishtirmoq.* M.Shayxzoda. *Qora uylarni esa, eski udumga ko‘ra, faqat ayollar tikishadi.* Sh.Xolmirzayev, Og‘ir tosh ko‘chsa<sup>33</sup>.

Yuqoridagi misolda to‘yga xos an‘analar haqida gap ketayapti. Bu marosim hamma tomonidan qabul qilingan rasm-rusum hisoblanadi. Shu sababli yozuvchi gapni ochiqlash maqsadida, **udum** leksemasini qo‘llagani ko‘rishimiz mumkin, chunki **udum** umumxalq tomonidan qabul qilingan hatti-qarakatlarga nisbatan ishlatiladi.

Hozirgi kundagi sinonimlar doirasidagi tadqiqotlarda nafaqat ularning ma‘nosidagi bir xillik, o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsatib berish, balki sinonimlarni gapdagi funksional xususiyatlarini aniqlash, turli ijtimoiy qatlamlarda qo‘llanilishi, kontekstga bog‘liqligi va shu kabi bir qator jihatlarini ularni turlarga bo‘linganda e‘tiborga olinishi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, ba‘zi tilshunoslar klassifikatsiyasidan joy olgan kontekstual sinonimlar ham ba‘zan o‘quvchiga qo‘shimcha ma‘lumot berish orqali gapga aniqlik kiritadi<sup>34</sup>, ammo kvazi-sinonimlar kabi ular har doim bu funksiyani bajarmaydi. Kontekstual sinonimlar adabiy matnlarga xos bo‘lib, muallif nutqida, yakka tartibda foydalaniladi. B.Umurqulovning “O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida badiiy adabiyotda ko‘pincha ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan yangi sinonimlarni **individual sinonimlar** deb ataydi, chunki ular ijodkorning so‘z qo‘llashdagi individualligini namoyon qiladi. “Badiiy matnda individual sinonimlarning muhim o‘rni bor. Chunki ular badiiy nutqda fikriy obrazlilikni kuchaytiruvchi semantik-uslubiy birlik sifatida muhimdir. Badiiy asarlarda qo‘llangan aksariyat individual sinonimlar ifodalaydigan tushuncha matnga xosligicha qoladi. Masalan, *Me‘mor Najmiddin Buxoriy xonadonida doimo yarqirab turadigan bir yulduz bor* (Mirmuhsin. “Me‘mor”) gapidagi *yulduz* so‘zi *qiz* so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan. *Qiz* tushunchasini ifodalagan bu so‘zning ma‘nosi shu matndagina reallashadi. Umuman, sinonimlar badiiy nasrni ham lug‘aviy, ham ifodaviy jihatdan jilolantiruvchi manba. Matnda sinonimlar qanchalik ko‘p va turlituman bo‘lsa, badiiy nutq ham shunchalik rang-barang, ta‘sirchan va ifodali

<sup>32</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. N-tartibli. Tuzatilgan 2-nashri. – 86 b.

<sup>33</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. To‘rtinchi jild. Tuzatilgan 2-nashri. – Toshkent, 2020. – 264 b.

<sup>34</sup> Белькова А.Е. Контекстуальные синонимы как стилистическое средство выразительности в языке поэзии В.А.Мазина // Вестник НВГУ. – Т., 2014. – № 4.

bo'ladi"<sup>35</sup>. Olim **individual sinonimlar** deb ta'kidlagan ma'nodosh so'zlar tilshunoslikda **kontekstual sinonimlar** deyiladi. Demak, kontekstual sinonimlarni faqat ma'lum bir kontekstdagi so'zlarning ma'nolari yaqinligini amalga oshiradigan individual ijodiy harakatning mahsuli sifatida hisoblashimiz lozim. Kontekstual sinonimlar bir semada kesishmagani bois ular sinonimlar lug'atida bir sinonimik qator a'zolari bo'lib kelmaydi. Kvazi-sinonimlar esa bir xil tushunchani ifodalab kelgani sabab, sinonimik lug'atlarda namoyon bo'ladi va qay xususiyatlariga ko'ra farq qilishi sinonimik qator a'zolariga berilgan izohlardan aniqlanadi. F.N.Akbayeva kontekstual sinonimlarning funksional xususiyatlaridan biri nutqning monotonligidan qochish, shuningdek, xabarni qabul qiluvchiga murojaat qiluvchi haqida qo'shimcha ma'lumotlarni yetkazish vositasi vazifasini bajarishini ta'kidlaydi<sup>36</sup>.

Sinonimlar tasnifidan joy olgan absolyut sinonimlar esa bitta matn ichidagi alohida alohida gaplarda kelib, o'quvchini so'z boyligini oshirish va bir xillikdan qochish uchun ishlatiladi. Boshqa sinonimlardan farqli o'laroq absolyut sinonimlar gapda qo'llanilganda ular teng kuchli hisoblansa, kvazi-sinonimlar esa biri ikkinchisini ma'nosiga aniqlik kiritish, konkretlashtirish uchun qo'llanilishi misollar asosida tahlil qilib isbotlangan. Jumladan, A.Kruz shunday holatda "The relationship between the two words is frequently signalled by something like *that is to say*, or a particular variety of *or*"<sup>37</sup>, ya'ni ikki so'z o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'pincha *that is to say* iboralari orqali aniqlashtiriladi, ba'zan esa uning bir turi bo'lgan **or birligi** orqali berilishini ta'kidlaydi.

*He was cashiered, that is to say, dismissed.*

*Uni xizmatdan ketgazishdi, ya'ni, bo'shatishdi* (dissertant tarjimasini).

Webster's New Dictionary of Synonyms lug'atida **cashier**<sup>38</sup> leksemasiga eng yaqin sinonim so'z qilib **dismiss** olingan. Gapda **cashier** so'zi **dismiss** leksemasi bilan yaqin sinonimik munosabatga kirishganligini *that is to say* bog'lovchisi orqali ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. *That is to say* bog'lovchisi o'zbek tiliga *ya'ni* orqali berilishi maqsadga muvofiq va o'quvchiga fikrni yanada to'la to'kis yetkazib berishda qo'llanilayotgan kvazi-sinonimlikni hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ushbu gapda A.Kruz ta'kidlaganidek, **cashier** so'ziga yanada aniqlik kiritishda **dismiss** so'zi *that is to say* orqali berilmoqda.

A.Kruz ta'kidlab o'tganidek, **or birligi** sinonimlarning kontekstga mos variantini tanlashda qo'llanilishini ta'kidlab o'tar ekan, ushbu so'zlarning ko'p ma'nolik xususiyatlaridan kelib chiqib, bitta gapda **or** bilan bog'lanishi aynan shu gap mazmunidan umumiylikdan xususiylikka o'tishni ta'minlab beradi:

*"I realised that much and freely as we had talked together, discussing ideas, our likes and dislikes, the future, our immediate friends and acquaintances – Sophia*

<sup>35</sup> Umurqulov B. O'zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: Filol.fan.dok....avtoref. – Toshkent, 2020. – 24 b.

<sup>36</sup> Акбаева Ф.Н. Семантико-стилистические и функциональные особенности контекстуальных синонимов как примеров вариантной номинации // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin), 2018. – № 2 (191). – С. 43.

<sup>37</sup> Cruse A. Lexical semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 267.

<sup>38</sup> Webster's New Dictionary of Synonyms. Gove Ph.B., editor. G.&C. Merriam Co. Merriam-Webster INC., Publishers Springfield, Massachusetts, U.S.A., 1984. – P. 130.

had never mentioned her home or her family (**Crooked House by Agatha Christie. – P.4**).

“Birga ko‘p va erkin gaplashib, g‘oyalarni, o‘zimizni yoqtiradigan va yoqtirmaydigan tomonlarimizni, kelajak, eng yaqin do‘stlarimiz va tanishlarimizni muhokama qilganimizda, Sofiya hech qachon o‘z uyi aniqrog‘i oilasi haqida gapirmaganini angladim (dissertant tarjimasini).

Yuqoridagi misol **home** bilan tugallanmaganligi va unga kvazi-sinonim qilib **family** olinganligiga sabab, **home** oila ma‘nosida oila a‘zolarini emas, oila muhitini anglatib keladi. Kontekstdan ma‘lumki, so‘zlovchi Sofiya oila a‘zolari haqida to‘xtalmaganini aytgan.

Biror bir ishni amalga oshirish mobaynida undan olinadigan natija bir xil bo‘lsa-da, amalga oshiriladigan ish-harakatning mazmun mohiyatidagi farqliligi ularning o‘zaro kvazi-sinonim bo‘lishiga olib keladi va unda A.Kruz ta‘kidlaganidek, **or rather (to‘g‘rirog‘i)** birligi qo‘llaniladi. Masalan,

*He was murdered, or rather executed.*<sup>39</sup>

*Uni o‘ldirishdi, to‘g‘rirog‘i qatl qilishdi* (dissertant tarjimasini).

**Murder** – odamni qonunga xilof ravishda va asossiz o‘ldirish<sup>40</sup> ma‘nosida qo‘llanilsa, **execute** – qonuniy jazo sifatida birovni o‘ldirish<sup>41</sup> degan ma‘noni ifodalaydi. Ular **o‘ldirmoq** ma‘nosida bir sinonimik qatorda kelsa ham<sup>42</sup>, qo‘llanilishiga ko‘ra farq qilgani bois, biri o‘rnida ikkinchisi ko‘p hollarda kela olmaydi. Shu sababli ular kvazi-sinonim hisoblanadi.

Yana bir misolga e‘tiborimizni qaratamiz:

“*One could hardly say that the feeling you mention about Fred is **wrong or rather, mistaken** – though no man ought to make a claim on such feeling*” (**Middlemarch by George Eliot. – P. 336**).

Siz Fred haqida aytgan his-tuyg‘ularingizni **noto‘g‘ri to‘g‘rirog‘i xato** deb aytish qiyin – garchi hech kim bu tuyg‘uga aralashmasligi kerak (dissertant tarjimasini).

Matn parchasida kelgan **wrong** – biror narsa to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. Masalan: soat, raqam, dalil, javob va hokazo. **Mistake** – siz ishongan narsangizni noto‘g‘ri bo‘lib chiqishi yoki noto‘g‘ri aqidaga ishonib xato qilish<sup>43</sup>. Demak, bu leksemalarning umumiy ma‘nosi **noto‘g‘ri** bo‘lsa ham, ular ko‘pincha biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanilmaydi.

Kvazi-sinonimlarning o‘zbek tilida qaysi birliklar bilan uchrashi va, asosan, ulardan qaysi biri ko‘proq qo‘llanilishi yoki kamroq kelishi va ingliz tilidan farqli o‘laroq boshqacha birliklar bilan gaplarda ishlatilishini o‘zbek adiblari tomonidan yaratilgan badiiy asarlardan olingan misollar tahlilida ko‘rib chiqamiz:

– *Biz ham sizlarning boshingizni qovushtirib, doim duolaringizda bo‘lamiz, – deb javob berdilar Hazrat, – biroq ilmi harbni yaxshi biladigan, sizlar bilan yonmayon turib jang qiladigan **rahnamo, to‘g‘rirog‘i, sardor, amir** zarur. Toki u qattol*

<sup>39</sup> Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press. 1986. – P.267.

<sup>40</sup> <https://www.merriam-webster.com>

<sup>41</sup> <https://dictionary.cambridge.org>

<sup>42</sup> <https://dictionary.cambridge.org>

<sup>43</sup> <https://dictionary.cambridge.org>

*dushmanga bas kela oladigan bahodir, jasur, zakovatli kishi bo'lsin...* (M.Sh.Xo'jayev. Shermuhammadbek qo'rboshi. – B. 54).

**RAHNAME** Yo'l ko'rsatuvchi, boshchilik qiluvchi; rahbar<sup>44</sup>. Izohdan ma'lumki, *rahname* so'zi yo'l boshchilik qiluvchi shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Jahon tilshunos olimlari kvazi-sinonimlarning gapdagi funksional xususiyatlari haqida so'z yuritir ekanlar, ba'zan qo'llanilgan birinchi sinonim so'zni to'g'irlash uchun unga kvazi-sinonim bo'lgan so'z tanlanishi ham kvazi-sinonimlar xos bo'lgan xususiyat ekanligini ta'kidlaydilar. Gap jang qiluvchi kishi haqida borar ekan, bu yerda o'quvchiga yanayam kontekstni aniq anglash maqsadida *rahname* so'ziga kvazisinonim qilib, *sardor* so'zi olinganligini guvohi bo'lamiz. Sababi *sardor* "Umuman, qo'mondon, boshliq"<sup>45</sup> ma'nosini anglatadi va, asosan, jangda qo'mondonlik vazifasini bajaradigan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari, *sardor* so'zini ta'kidlab kelgan **AMIR** (Hokim, hukmdor; boshliq<sup>46</sup>) so'zi ham boshliq ma'nosini ifodalab, gapni yanada oydinlashtirishga xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shu fikrimizga asos qilib, yana bir misolga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *sarbon* so'ziga kvazisinonim qilib olingan *tuyachi* – "tuyachilik bilan shug'ulanuvchi kishi, tuyachilik mutaxassisi"<sup>47</sup> ma'nosida *sarbon* – "karvonboshi; tuyakash"<sup>48</sup> bilan bir semada birlashishiga qaramasdan, *sarbon* so'zi boshqa "yo'l boshchi, rahbar, rahname" ma'noda ham qo'llanilishini hisobga olsak, bu ikki sinonim har doim ham biri o'rnida ikkinchisi qo'llana olmasligi, ular kvazisinonim ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli quyidagi gapda *sarbon* so'ziga aniqlik kiritish maqsadida, unga kvazisinonim bo'lgan *tuyachi* olingan, chunki *sarbon* so'zi boshqa ma'noda ham qo'llaniladi:

*Miryoqub ishonadiki, ming-boshi – tuya, burniga ip o'tkazilgan, ipning uchi – sarbonda, ya'ni tuyachida, sarbonning nomini Miryoqub qo'yganlar... (Abdulhamid Cho'lpon. Kecha va kunduz. – B. 122 // www.ziyouz.com kutubxonasi).*

Kvazi-sinonimlarni tahlil qilar ekanmiz, yana bir asardan olingan parchadagi *udum* va *sunna* so'zlariga e'tiborni qaratamiz. "**UDUM** – umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib; odat, rasm"<sup>49</sup> ma'nosini anglatadi, unga kvazi-sinonim qilib olingan *sunna* so'zi ham odat, an'ana ma'nosida qo'llanilib, *udum* so'zidan aynan "Islomda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan Muhammad payg'ambarning so'zlari, amallari, xatti-harakatlari"<sup>50</sup> ma'nosi bilan farq qiladi. Demak, *udum* va *sunna* har doim ham bir-birini o'rnida qo'llanila olmaganligi sababli, ularni kvazi-sinonim deb hisoblash to'g'ri deb o'ylaymiz. Quyidagi gapda *udum* so'zini aniqroq ifodalash maqsadida *sunna* so'zi olingan bo'lib, aynan musulmon olamiga xos bo'lganligi sababli hamda diniy udum mazmuniga yaqin so'z sifatida ya'ni birligi orqali berilgan:

<sup>44</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A. tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 364 b.

<sup>45</sup> Yuqoridagi asar. – B. 448.

<sup>46</sup> Yuqoridagi asar. – B. 78.

<sup>47</sup> Yuqoridagi asar. – B. 224.

<sup>48</sup> Yuqoridagi asar. – B. 447.

<sup>49</sup> Yuqoridagi asar. – B. 264.

<sup>50</sup> Yuqoridagi asar. – B. 587.

*Qabila udumi, ya'ni sunnaga binoan eng yoshi ulug' va obro'si baland o'tag'asi musulmon olamiga bosh bo'lishi kerak edi (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – B. 208).*

O'zbek tilida kvazi-sinonimlar faqatgina bog'lovchi birliklar bilan emas, tinish belgisi ya'ni *vergul* bilan ham kelishi mumkinligini ko'ramiz. Misolda qo'llanilgan *yosh* leksemasi bir necha ma'noga ega bo'lib, u anglatgan *qari emas*<sup>51</sup> ma'nosiga ko'ra, *navqiron* so'zi bilan sinonim hisoblanadi. Ammo *yosh* ham ayol, ham erkak uchun birday qo'llanilsa, *navqiron* faqat erkak jinsiga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari, *yosh yigit* bilan *navqiron yigit* o'rtasida farq mavjud bo'lib, jismonan sog'lom bo'ladimi yo'qmi, yoshi jihatdan katta bo'lmagan har qanday yigitga *yosh* sifat turkumini ishlatiladi, ammo *navqiron* so'zida stilistik bo'yoq kuchli bo'lib, u "avji kuch-quvvatga to'lgan, qirchillama, yosh"<sup>52</sup> ma'nosini anglatib, har qanday yosh insonga nisbatan qo'llanilavermaydi. Izohdan anglash mumkinki, *navqiron* so'zi aynan kuch-quvvatga to'lgan yosh yigitga nisbatan ishlatiladi. Har ikkala so'z *yosh* ma'nosida bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ishlatilishiga ko'ra farq qilishi bois, biri ikkinchisiga kvazi-sinonim hisoblanadi:

*Yosh, navqiron yigit, salom alik, "horma", "bor bo'l", "shunday, shunday gap; bir parcha arza bitdirdsam, deb kelgan edim" (Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon. – B. 394).*

Demak, gapda kvazi-sinonimlarning funksional xususiyatlari gapdagi voqelikni oydinlashtirish, o'zidan oldin kelgan denotatga aniqlik kiritish hisoblanadi.

## XULOSA

1. O'zbek tilida sinonimlar izohli lug'atlari chuqur tahlilga tortilganligi, hamda ulardagi izohlarning berilishi natijasida nafaqat sinonimik qatorlar a'zolarining o'ziga xos jihatlari, balki lug'atda berilgan tafsilotlar natijasida kvazi-sinonimlarni ajratish imkoniyati yuqori hisoblanadi. Lug'atlardagi izohlarni mukammallashtirish aynan kvazi-sinonimlar orasidagi nozik farqlarni yoritib berish imkonini yuzaga keltirdi. Sinonimlarning izohli lug'atini quyidagi tartibda berish tavsiya etiladi: 1) *Sinonimik qator a'zolari ketma-ketligini berish*; 2) *Sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohlarini berish*; 3) *Sinonimik qatordagi har bir so'zga xos xususiyatning ta'rifini keltirish*; 4) *Nutqiy uslubga aloqadorligini ko'rsatish (agar mavjud bo'lsa)*; 5) *Nutqdagi faollik darajasini izohlash*; 6) *Lingvokulturologik belgilarini tavsiflash*; 7) *O'zbek adabiyoti namunalaridan olingan sinonimik qatordagi har bir so'zning tegishli ma'nosini dalillovchi misollarni keltirish*; 8) *Misollar berilgandan so'ng, ushbu misoldagi so'zning ma'nosiga alohida izoh berish, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish*; 9) *Har bir sinonimik qator a'zosining alifbo tartibida joylashgan qismida to'liq izohlarini berish*; 10) *Ko'rsatkichda sinonimik qatordagi barcha a'zolarini berish*; 11) *Ko'rsatkichda sinonimik qator a'zolarining izohlarini qaysi betdan topish*

<sup>51</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A. tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 52.

<sup>52</sup> Yuqoridagi asar. – B. 8.

*mumkinligini keltirish.*

2. Ingliz tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan kvazi-sinonimlarning o'ziga xos jihatlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish natijasi, bu kabi sinonim turi o'zbek tilida ham mavjudligini ko'rsatadi. O'zbek tilining mohiyatidan kelib chiqib, gap tarkibida yaqin ma'noga ega bo'lgan ikki so'zning berilishi, ularning gapdagi ishtiroki, qaysi birliklar orqali namoyon bo'lish jihatlarini badiiy matnlar asosida tahlilini amalga oshirish lozim.

3. Kontekstual sinonimlar badiiy matnlarga xos bo'lib, ular sinonimik lug'atlarda o'zaro sinonimlar emas, bu esa ularning kvazi-sinonimlardan ajralib turadigan asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda qo'llanilgan kontekstual sinonimlar ifodalaydigan tushuncha faqat shu matnga xos hisoblanadi.

4. Ingliz olimlari gapda kvazi-sinonimlar *that is to say, or, or rather* birliklari orqali berilishini ta'kidlashgan, o'zbek tilida matnlarda esa *ya'ni, to'g'rirog'i* kabi birliklar bilan beriladi, shuningdek, ingliz tilidan farqli o'laroq o'zbek tilida yuqoridagi birliklardan tashqari kvazi-sinonimlar gapda tinish belgilari *ya'ni vergul, tire* orqali ifodalanishi ham mumkin.

5. Kvazi-sinonimlarning ba'zi olimlar tomonidan *near-synonym, plesionym* deb nomlanishlar o'rtasida hech qanday tafovut mavjud emas. Buning asosiy sababi fanda *kvazi* morfemasi aynan "yaqin", "deyarli bir xil" degan ma'nolarni anglatadi hamda boshqa sohalarda ham yaqinlik va o'xshashlik mavjud bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

6. Sinonimlardagi stilistik bo'yoqdorlik, nutqda qo'llanilishiga ko'ra o'ziga xos jihatlar, ularning qo'llanilish ko'lami, ekspressivligi hamda kontekstga nisbatan ma'no o'zgarish xususiyatlari kvazi-sinonimlarga ham xos bo'lib, mavhum o'lchamli, urg'u berish, denotatsion-bilvosita, denotatsion-noaniq, stilistik-rasmiy, stilistik-kuch, munosabat, hissiyot, so'z bilan birikishi, tanlov, subkategoriyalash xususiyatlariga ko'ra farq qiladi.

7. Chog'ishtirilayotgan tillarda kvazi-sinonimlar bir-biridan rasmiy yoki norasmiyligi bilan, denotatga yaqin yoki uzoqligi bilan, stilistik bo'yoqdorlikning kuchli yoki kuchsizligi bilan, so'zlovchining predmet yoki hodisaga nisbatan munosabatining turlicha ekanligi bilan, ularning so'zlar bilan birika olish yoki olmaslik jihatlarini bilan farqlanadi.

8. Ingliz va o'zbek tillarida kvazi-sinonimlar nutqdagi ekspressivlikni kuchaytirish yoki pasaytirish, biror bir narsani konkretlashtirish yoki aniqlashtirish uchun qo'llaniladi.

9. Kvazi-sinonimlarning har bir muayyan tilda mavjudligini ham alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganish hamda ingliz tilidagi kvazi-sinonimlarning ifodalanishini boshqa tillarni, ya'ni qardosh va noqardosh bo'lgan tillarda o'zaro chog'ishtirish orqali tadqiq etish, gaplarda bajaradigan funksiyasi hamda matndagi ahamiyatini ham tadqiq qilish, qiziqarli ma'lumotlarni berish orqali mazkur sohada yana ilmiy izlanishlar olib borilishi istiqboldagi tadqiqotlardan hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**АБДУЛХАЕВА МАЛИКА МАРАТОВНА**

**ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КВАЗИСИНОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ  
И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**ТАШКЕНТ – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2021.1.PhD/Fil1601**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Джумабаева Жамила Шариповна</b> доктор филологических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Маматов Абдимурод Эшонкулович</b> доктор филологических наук, профессор <b>Болтакулова Гулноза Фарруховна</b> доктор философии по филологическим наукам (PhD), профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Узбекский государственный университет мировых языков</b>

Защита диссертации состоится «15» марта 2025 года в 12:00 часов на заседании Научного совета 03/30.12.2019.Phil.01.10 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Фараби, 400. Тел: (+99871) 246-08-62; факс: (+99871) 246-65-24 e-mail: [наука@nuu.uz](mailto:наука@nuu.uz). Национальный университет Узбекистана, Факультет зарубежной филологии (3 этаж, 3-11 ауд.).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №\_\_\_\_. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д.4. Тел: (+99871) 246-02-24

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(протокол реестра рассылки за №\_\_\_\_. \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года).

**И.А.Сиддикова**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, докт.  
филол. наук, профессор

**Ш.О.Назирова**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, канд.  
филол. наук, доцент

**С.Э.Камилова**  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, докт. филол. наук,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Несмотря на то, что в мировой лингвистике синонимы считаются достаточно изученными, в некоторых языках они имеют нераскрытые грани. Изучение синонимов служит не только развитию области лексикографии, но и выявлению особенностей методики преподавания языка, значимости, вариативности, дублетности, а также место синонимов среди семантических категорий, их взаимоотношений с другими семантическими категориями, а также типов синонимов.

Если в работах, созданных в результате исследований мировой лингвистики, явление синонимии, синонимические отношения, их виды, классификация синонимов описывались исходя из требований того времени, то в настоящее время они являются одним из центральных вопросов в области семантики, а также определения синонимов и их классификации имеют более широкие значения по сравнению с прошлыми исследованиями. Повышенное внимание, уделяемое лингвистами мира изучению квазисинонимов, создало почву для исследования квазисинонимов в узбекском языкознании

В нашей республике значительно расширяется и сфера научно-исследовательской работы, направленной на развитие языкознания на основе сопоставительного изучения родного языка с неродственными ему индоевропейскими языками. В частности, если в первые годы независимости научные исследования были посвящены аспектам и сущности семантических категорий в рамках одного языка, то в последние годы, несмотря на актуальность работ, посвященных выявлению различий и сходств между языками путем сопоставления, все еще существуют вопросы в исследовании синонимии, ожидающие своего решения. Изучение в сравнительно-сопоставительном аспекте также выявить как сходства, так и различия квазисинонимов в обоих языках, послужит решению проблемы их перевода, совершенствованию переводных словарей и обеспечению адекватности перевода.

Актуальность данного исследования обусловлена тем, что в английском и узбекском языках существует необходимость не только выявления сходств и различий между синонимами, но и изучения их функциональных аспектов, широкого внедрения в практику результатов, полученных в результате их сопоставления.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы” за № УП-60 от 28 января 2022 года, “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” за №УП-5847 от 8 октября 2019 года и Постановлениях “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” за № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года, “О дополнительных мерах по повышению качества

образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” за № ПП-3775 от 5 июня 2018 года, “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” за № ПП-5117 от 19 мая 2021 года и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках первого приоритетного направления развития науки и технологий республики I. “Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информатизированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”.

**Степень изученности проблемы.** В английском языкознании внимание к изучению семантических отношений вызвал интерес у многих лингвистов в середине прошлого века, что ясно из созданных работ. В особенности, широки масштабы исследований, проведенных в рамках лексических отношений, в частности синонимов, возможности подробно остановиться на них на всех нет. По этой причине мы сочли необходимым упомянуть некоторых английских лингвистов, а также других ученых мира, которые проводили большую исследовательскую работу по синонимии. Такие ученые, как Р.Харрис, Дж.Лайонз, А.Круз, Х.Джексон, А.Лерер, Л.Липка, С.Хаякава, О.Эрликс, Ч.В.Крейдлер, К.Фельбаум, Г.Херст, К.ДиМарко, М.Стеде, К.Кернс, А.Кит, П.Портнер, Л.Мерфи, Джон И.Саид, Дж.Юл, Д.Герертс, Пол Д.Элборн, М.Хан<sup>1</sup> внесли в науку значительные инновации в области лексической семантики, уделяя особое внимание

---

